



XALQARO SUDDA KO'RILADIGAN JINOATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdimuratov Albakir Amirovich

*Namangan davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro sud va unda ko'rib chiqiladigan ishlar haqida so'z boradi. Shuningdek, Xalqaro sudning kelib chiqishi, tarixi, jinoiy ishlarni ko'rib chiqish jarayoni (procsessi) haqida batafsil to'xtalib o'tiladi. Xalqaro sud qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ular haqida ma'lumot berib o'tiladi. Shular bilan bir qatorda xalqaro jinoyatchilarga ochilgan jinoiy ishlar va ularga berilgan jazolar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Sud, huquq, jinoyat, ustav, xalqaro jinoyat, genotsid, xalqaro harbiy tribunal, rim statuti, xalqaro va mintaqaviy harbiy nizolar, agressiya, xalqaro javobgarlik.

Аннотация: В данной статье говорится о международном суде и рассматриваемых в нем делах. Также будут подробно рассмотрены происхождение, история и процесс рассмотрения уголовных дел Международного Суда. Будут предоставлены нормативно-правовые документы, принятые Международным Судом ООН, и информация о них. Кроме того, будет предоставлена информация об уголовных делах, возбужденных против международных преступников, и назначенных им наказаниях.

Ключевые слова: суд, право, преступление, статут, международное преступление, геноцид, международный военный трибунал, римский статут, международные и региональные военные конфликты, агрессия, международная ответственность.

Abstract: This article talks about the international court and the cases considered in it. Also, the origin, history, and process of considering criminal cases of the International Court of Justice will be discussed in detail. Normative legal documents adopted by the International Court of Justice and information about them will be provided. In addition, information about the criminal cases opened against international criminals and the punishments given to them will be provided.



Key words: court, right, crime, statute, international crime, genocide, international military tribunal, rome statute, international and regional military conflicts, aggression, international responsibility.

Insoniyat yaralibdiki necha yuz yillar davomida urush-janjallar bo‘lib keladi. Ana shunday urushlarning oldini olish uchun butun dunyoda va dunyo aholisini tinch-totuv yashashi uchun katta kuch kerak bo‘lar edi. Ana shunday bir sharoitda katta maydonga Xalqaro sud kirib keldi. Insoniyat boshdan kechirgan eng qirg‘inbarot urush ya‘ni ikkinchi jahon urushidan so‘ng xalqaro maydonga urushni keltirib chiqargan mamlakatlarni jazolovchi Xalqaro sud tashkil topdi. Xalqaro sudning birinchi ishi ikkinchi jahon urushidagi aybdor davlatlarni Tokio va Nyurnberg shaxarlarida sudlov amalga oshirilib, aybdorlarga jazo tayinlangan. Xalqaro sud bugungi kundagi xalqaro jinoyatlarni jazolovchi organ bo‘lib turibdi.

Xalqaro sud - Birlashgan Millatlar tashkilotining oltita asosiy organlaridan biri bo‘lib, davlatlarning o‘rtasidagi muammolar bilan shug‘ullanadi va xalqaro huquq asosida o‘zining xolis maslahatlarini beradi. Xalqaro sud dunyoda davlatlarning o‘zaro muammolari bilan bevosita ish ko‘radigan va uning maslahatlari va qarorlari xalqaro huquqning boshlang‘ich asoslari sifatida foyalanadigan dunyodagi yagona sud sanaladi. Xalqaro sud xalqaro jinoyatlarga beriladigan jazolar va ularning qay tartib berilishini nazarda tutadi. Xalqaro sud 1920 - yilda tomonidan tashkil etilgan doimiy Xalqaro Sud vorisi hisoblanadi. Xalqaro sud — BMTning asosiy sudlov organi. 1945-yilda tashkil topgan. Davlatlar o‘rtasidagi yuridik nizolarni ularning roziligi bilan qiladi va huquqiy masalalar bo‘yicha tavsiyaviy xulosalar beradi. 15 nafar sudyalardan iborat, ular BMT Assambleyasi va tomonidan 9 yilga saylanadi. BMT Ustavining ajralmas qismi hisoblanadigan asosida ish olib boradi. Xalqaro sud shahrida joylashgan. Saylov jarayoni sud nizomining 4-19-moddalarida belgilangan tartibda, ya‘ni saylovlar sud faoliyatining uzluksiz holda davom ettirish uchun har uch yilda 5 nafardan sudyalarni bosqichma -bosqich saylab boriladi. Agar sudya vafot etsa, amaliyotda odatda sudyani muddatini yakunlash uchun maxsus saylov chaqirishdan iborat bo‘ladi. Ikki nafar sudya bir vaqtning o‘zida bir mamlakat fuqarosi bo‘lishi mumkin emas. 1947-yil 22-mayda boshlab Xalqaro sud 2022-yil sentabrgacha 184 ta ishni ko‘rib chiqdi.

Xalqaro Jinoyat Sudining Rim Statutida quyidagi nomlar bilan xalqaro jinoyat turlari belgilangan:

- 1) genotsid;
- 2) insoniyatga qarshi jinoyatlar;



3) harbiy jinoyatlar;

4) agressiya.

“Agressiya” (lot. *agressio*, *aggredior* - xuruj, hujum qilmoq) - xalqaro huquqda bir davlatning BMT Ustavini buzgan holda boshqa davlat yoki ma’lum bir davlatning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatishi. Agressiyaga ta’rif BMT Bosh Assambleyasining 1974-yilgi 3314(XXIX)-sonli Rezolutsiyasida keltirilgan.

“Genotsid” (tarjimasi - urug‘, qabilalarni o‘ldirish, qirg‘in qilish) irqiy, milliy, etnik yoki diniy belgilariga asosan butun bir aholini jismonan yo‘q qilishni bildiradi.

“Apartheid” (tajjimasi - alohida yashash) irqiy kamsitilishning keskin shakllaridan biri bo‘lib, davlatlarning butun bir aholisining guruhi, irqiga ko‘ra davlatdagi boshqa aholiga nisbatan huquqlari kamsitiladi. Ular siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilinadilar.

“Ekotsid” (tarjimasi - uy, turar joylarni yo‘q qilish) xalqaro harbiy jinoyat bo‘lib, atrof muhitga, tabiatga sivilizatsiya uchun, ijtimoiy xavfli tajovuz qilishni bildiradi.

“Biotsid” (tarjimasi - hayotni tugatish) xalqaro jinoyat sifatida ekossiddan oxirgi o‘n besh yil ichida ajralib chiqdi. Biotsidning ekotsiddan farqi shundaki, u faqat insoniyatga qarshi qaratilgan. bo‘ladi.

“Terrorizm” atamasi lotincha “terror” so‘zidan olingan bo‘lib, sarosimaga solish, qo‘rqitish ma’nolarini anglatadi. Endi esa xalqaro xamjamiyatdagi urushlarga to‘xtalib o‘tish lozim. Bu borada Isroil va Falastin o‘rtasidagi urushni keltirib o‘tish mumkin.

Xalqaro jinoyat ishlari sudi XXI asrda amalga oshirilgan og‘ir jinoyatlarga jazo belgilash uchun shartnoma asosida tashkil qilingan ilk doimiy sud hisoblanadi. «Xalqaro nizo» tushunchasi asosan davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklarni va ziddiyatlarni, xususan, tinchlik va xavfsizlikka taxdid solinayotgan vaziyatni belgilash uchun ishlatiladi. Nizo yoki ziddiyat paydo bo‘lgan paytdan boshlab, to uning o‘sishi va xal etilishiga qadar xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan xal etish tamoyili amalda bo‘lishi lozim. Zero ushbu tamoyil xalqaro huquqning hamma tomonidan tan olingan va umume’tirof etilgan imperativ tamoyilidir.¹ Xalqaro jinoyatlar bu xalqaro xavfli huquqbuzarlik bo‘lib, davlatlar va millatlarning muhim hayotiy manfaatlariga, hayotiy asoslariga putur yetkazadi, xalqaro huquqning muhim prinsiplari va normalarini qo‘pol ravishda buzadi, xalqaro tinchlik va xavfsizlikka

¹ Xalqaro huquq. Akmal Saidov. “Adabiyot jamg‘armasi”. 2001-yil.



tahdid soladi va zarar yetkazadi. Xalqaro jinoyatlar deb insoniyat uchun xavfli bo'lgan, shaxsni himoyalash, xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlari, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi. Xalqaro jinoyat ishlari sudi XXI asrda amalga oshirilgan og'ir jinoyatlarga jazo belgilash uchun shartnoma asosida tashkil qilingan ilk doimiy sud hisoblanadi. Va nihoyat, bosh Assambleya 1998-yil iyun oyida Rimda konferensiya chaqirdi, bu shartnomani sud nizomi sifatida yakunlash maqsadida 1998-yil 17-iyulda Xalqaro Jinoyat Sudining Rim Nizomi 120 dan ortiq bo'lgan ovoz bilan qabul qilindi. 21 mamlakat betaraf qoldi. Shartnomaga qarshi ovoz bergan yetti mamlakat. Bular Xitoy, Iroq, Isroil, Liviya, Qatar, AQSh va Yaman edi. Isroilning shartnomaga qarshi chiqishi aholini bosib olingan hududga o'tkazish harakati urush jinoyatlari ro'yxatiga kiritilishidan kelib chiqqan. BMT Bosh Assambleyasi 1999-yil 9-dekabr va yana 2000-yil 12-dekabrda Xalqaro Jinoiy Sudni tasdiqlash uchun ovoz berdi. 60 ta davlat ratifikatsiya qilinganidan so'ng, Rim Nizomi 2002-yil 1-iyuldan kuchga kirdi va Xalqaro Jinoyat sudi rasmiy ravishda tashkil etildi. 18 sudyadan iborat birinchi saylovlar 2003-yil fevral oyida ishtirokchi davlatlar Assambleyasi tomonidan saylangan. Ular 2003-yil 11-martda sudning birinchi majlisida qasamyod qildilar. Tashkilot yurisdiksiyasiga jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan va xalqaro hamjamiyatni qattiq tashvishga solgan og'ir jinoyatlar kiradi. Sud, asosan, insoniyatga qarshi amalga oshirilgan, bosqinchilik va harbiy xususiyatga ega jinoyat ishlarini ko'radi. Shuningdek, genotsid uyushtirishda bosh-qosh bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish uchun ta'qib qiladi. Sud birinchi xibsga olish uchun orderni 2005-yil 8-iyulda berdi va birinchi sudgacha eshituvi bo'lib o'tdi. ICC 2006-yilda urush jinoyatlariga qarshi ayblovlar bo'yicha birinchi tinglovini o'tkazdi. Tomas Lubanga Dyilo, askar bolalarni yollashda ayblangan Kongo sarkardasi; uning 2012 yildagi keyingi sudlanishi sud tarixida birinchi bo'ldi. Prokuratura 12 ta rasmiy tergovni ochdi va qo'shimcha to'qqizta dastlabki ekspertiza o'tkazdi. Uganda isyonchilar rahbari Jozef Kony, Sudan sobiq Prezidenti Umar al-Bashir, Keniya Prezidenti Uxuru Kenyatta, Liviya davlat rahbari Muammar Qaddafiy, Kot-d'Ivuar Prezidenti Laurent Gbagbo va Kongo demokratik Respublikasining sobiq vitse-Prezidenti Jan-Per Bemba kabilar Xalqaro sudga o'nlab shaxslar ayblanmoqda. 2006-yil sud o'zining birinchi qarorini 2012-yilda Kongo isyonchilari rahbari Tomas Lubanga Dyilo askar bolalarni ishlatish bilan bog'liq jinoiy ishda aybdor deb topganida chiqargan. Lubanga 14 yil qamoq jazosiga hukm qilindi. Bugungi kunda Xalqaro jinoiy ishlar sudiga a'zo davlatlar assambleyasi tomonidan Buyuk Britaniyalik Karim Xon Xalqaro jinoiy ishlar sudi prokurori etib saylandi. U 2021



yildan boshlab, to‘qqiz yilga saylangan. Xalqaro jinoiy sudning Rim nizomi (bo‘lib o‘tgan diplomatik konferensiyada qabul qilingan va kuchga kirgan. Ustavda boshqa narsalar qatorida sudning vazifalari, va tuzilishi ham belgilab qo‘yilgan. 2016-yil mart oyi holatiga ko‘ra 139 ta davlat shartnomani imzolagan, ammo 124 tasi uni ratifikatsiya qilgan.²

Xalqaro sudning yana bir ishlaridan biri Rossiya Federatsiyasiga nisbatan ko‘rilgan ishdir. BMT Xalqaro sudi Rossiya rasmiylari 2014-yilda Ukraina sharqidagi ayirmachi guruhlariga moliyaviy yordam ko‘rsatish holatlarini tekshirmagani uchun Moskvani “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro konvensiya”ning ayrim qoidalarini buzganlikda aybdor deb topdi. Bu haqda tashkilot saytida e‘lon qilingan. Sud Rossiya tomonidan 2014- yildan keyin Qrimda joriy etilgan, ukrain tilida o‘qitishni ta‘minlamaydigan ta‘lim tizimi “Irqiy kamsitishlarga barham berish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyaning buzilishi, deb hisobladi. Biroq BMT sudi ayblovlarning ikkinchi qismida Ukrainaning Qrimdagi qrim-tatarlari va ukrainlarga nisbatan irqiy kamsitish faktlarining aksariyatini isbotlanmaganini bildirdi. Shuningdek, sud Donetsk va Lugansk ayirmachilarini terrorchi deb hisoblash uchun yetarli dalillarga ega emasligini ta‘kidladi. Ma‘lumot uchun, 2017-yilning 16-yanvarida rasmiy Kiyev Rossiya Federatsiyasini “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya va “Irqiy kamsitishlarga barham berish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyani buzganlikda ayblab, Gaagadagi Xalqaro sudga da‘vo arizasi bilan murojaat qilgan. Ukraina tomoni o‘z da‘vosida Rossiya ukrainlar va qrim-tatarlarni kamsitganini va Qrim-tatar xalqi majlisi faoliyatini taqiqlaganini qayd etgan. Shuningdek, Ukraina “vaqtinchalik bosib olingan Qrimda” odamlarning yo‘qolib qolishi, qotilliklar, noqonuniy qidiruvlar va hibsga olishlar bo‘lganini ta‘kidlagan. Bugungi kunda ham Rossiya Federatsiyasi va Ukraina davlatlari o‘rtasidagi urushni xalqaro nizolarga misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Shu o‘rinda, BMTning Rossiya Federatsiyasiga nisbatan jazo chorasi sifatida sport va iqtisodiyot sohasida qo‘llyotgan sanksiyasini ko‘rishimiz mumkin. Sanksiyalar kiritayotgan asosiy davlatlar bu – AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlari, shuningdek ularning bevesta ta‘siri ostida bo‘lgan davlatlar.

Xulosa qilib aytganda, biz yuqorida gaplashgan mavzuimiz bo‘yicha quyidagi berilgan ma‘lumotlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Xalqaro sudlar jinoyat qilgan davlat yoki shaxsga nisbatan qat‘iy jazo tizimiga ega ekanligini

² Scharf, Michael P. (en). *ASIL Insights*. The American Society of International Law (1998-yil 1-avgust)



ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Xalqaro sudning jinoyatchi davlatlarga nisbatan qo‘llayotgan sanksiyasi va buning oqibatida o‘sha davlatning iqtisodiyotiga ta‘sirida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Yuqoridagilardan kelib-chiqib, Xalqaro jinoyatlarga berilgan jazo va ularning oqibatida kelib-chiqishi mumkin bo‘lgan natijalar haqida o‘ylash juda muhim hisoblanadi. Statistikalarni tahlil qilish natijasida, shunday fikrga kelish mumkin. Har bir mamlakatning aholisi o‘zining huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglab yetsa huquqbuzarlik va jinoyat kabilar sodir etilishi nisbatan kamroq bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, bu mavzu ko‘proq izlanish mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Scharf, Michael P. (en). ASIL Insights. The American Society of International Law.1998.08.01.
2. Xalqaro huquq. Darslik. Y.F.N, prof.G.Yuldasheva.TDYU nashriyoti, 2018.
3. Bekzod Musurmonov. “Insoniyat tarixidagi “buyuk” jinoyatchilar”. Zarnews.uz. 02.08.2019.
4. Landon Roberts. “Dunyodagi eng xavfli jinoyatchi kim ekanligini bilib oling?”. 2023.12.17.
5. Xalqaro huquq.Akmal Saidov.”Adabiyot jamg‘armasi”.2001-yil.
6. The Practitioner’s Guide to International Law. The Law Society of New South Wales (New South Wales Young Lawyers International Law Committee). 2014.
7. Akbarali o‘g‘li S. F. МАКТАБ О‘ҚУВЧИЛАРИ HUQUQIY TA‘LIM VA TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 24. – С. 28-30.
8. Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g‘li. МАКТАБ О‘ҚУВЧИЛАРИ HUQUQIY TA‘LIM – TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA OLIB BORILGAN TAJRIBA SINOV ISHLARI NATIJALARINING PEDAGOGIK TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/2 (3)-2023. ISSN: 2181-1342 (Online) <https://scienceproblems.uz>
9. Akbarali O'g'li, Satvoldiyev Fakhriddin. "Prospects for improving the technologies of developing legal thinking for schoolchildren (on the example of the province of Namangan)." *Current research journal of pedagogics* 4.01 (2023): 94-97.